



LOYIHA FAOLIYATIDA KLASTER USULINI QO'LLASHDA IJTIMOY HAMKORLIK TUSHUNCHASI

Intizor Kamilovna Abdirimova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada loyiha faoliyati va pedagogik ta'lim klasteri tushunchalariga ta'rif berilib, loyiha faoliyatida klaster usulini qo'llashda ijtimoiy hamkorlik tushunchasi misollar yordamida ochib berilgan. Loyihalash faoliyatida klaster usulidan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutishi ilmiy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *klaster, ijtimoiy hamkorlik, mexanizm, ijtimoiy sub'ektlar, loyihalash faoliyati, pedagogik ta'lim klasteri, klaster yondashuv, innovatsion texnologiya, innovatsion yondashuv, ta'lim tizimi, loyiha.*

КОНЦЕПЦИЯ СОЦИАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА ПРИ ПРИМЕНЕНИИ КЛАСТЕРНОГО МЕТОДА В ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье определены понятия проектной деятельности и кластера педагогического образования, а также на примерах раскрыто понятие социальной кооперации при применении кластерного метода в проектной деятельности. Научно выяснено, что использование кластерного метода в проектной деятельности играет важную роль в повышении эффективности образования.*

Ключевые слова: *кластер, социальная кооперация, механизм, социальные образования, проектная деятельность, кластер педагогического образования, кластерный подход, инновационная технология, инновационный подход, образовательная система, проект.*

THE CONCEPT OF SOCIAL COOPERATION IN THE APPLICATION OF THE CLUSTER METHOD IN PROJECT ACTIVITIES

Annotation. *The article defines the concepts of project activity and the cluster of teacher education, as well as the examples of the concept of social cooperation when applying the cluster method in project activity. It has been scientifically found that the use of the cluster method in project activities plays an important role in improving the efficiency of education.*

Key words: *cluster, social cooperation, mechanism, social education, project activity, teacher education cluster, cluster approach, innovative technology, innovative approach, educational system, project.*



Hozirgi kunda inson kapitali tushunchasiga keng ahamiyat qaratilmoqda. Buning uchun davlatimizda yetishib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi, ta'lim sifati muhim o'rin egallaydi. Keyingi yillarda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalarini yangicha innovatsion yondashuvlar, yangicha qarashlar, tushunchalar va munosabatlar bilan qayta ko'zdan kechirishni taqazo etmoqda. Bugun biz tarixiy bir davrda xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib tinch-osayishta hayot kechirayotgan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqoralik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Bu borada har bir cohada taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olib, o'z navbatida ular bilan tajriba almashib, erkin va farovon hayot barpo etmoqdamiz. Ma'lumki, har qanday mamlakatning rivoji yosh avlod qo'lida bo'ladi. Yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishga esa bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – ta'lim-tarbiya tizimi hisoblanadi.

Yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish davlat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni nazarda tutgan holda ta'lim tizimida (umumta'lim, o'rta-maxsus, oliy ta'lim) bir qator o'zgarishlar va islohotlar olib borilmoqda. Taraqqiyotning bu kabi tez sur'atlar bilan kechayotgaligi sababli innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga ham tatbiq etish bugunning dolzarb masalalari qatorida turibdi. Bu esa ta'lim sohasida tizimli muammolarni hal qilish, yangicha metod, shakl, yondashuv va texnologik jarayonlar vositasidan foyalanish sohada sifat ko'rsatkichini o'sish jarayonini ta'minlaydi.

Bunda asosan o'quv jarayonida an'anaviy ta'lim mexanizmidan voz kechishga, ta'lim oluvchilarning tashabbuskorligini rag'batlantirishga qaratilgan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'zaro hamkorlikda o'rganish imkonini beruvchi, loyihalash faoliyatini tatbiq etish shubhasiz samarador ustunlikka egadir. Loyihalash faoliyatida turli ta'lim muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlarining hamkorligini nazarda tutuvchi loyihalar asosiy o'rin tutadi.

Loyiha faoliyatiga to'xtaladigan bo'lsak, 1918 yilda Kolumbiya universiteti qoshidagi pedagogika kolleji o'qituvchisi Vilyam Kilpatrik loyihalash metodining mohiyatiga bag'ishlab "Loyihalash metodi" nomli maqolani chop qildirdi. Muallifning keyingi maqolalarida ushbu atama kuyidagicha talqin qilinadi: "Loyiha" atamasi faoliyatning har bir imkoniyatini, tajriba jarayonining bog'liqligini anglatishi zarur. Bunda maqsad ichki omil sifatida:

- faoliyatning maqsadini anglatadi, tajribaga ega bo'lish jarayonini boshqaradi;
- shaxsning o'z faoliyatini va ichki qobiliyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

[2]

Loyihalash metodi uzluksizlikni ta'minlay olmagan va puxta o'ylanmagan metod sifatida tanqidga uchradi va yaqin davrgacha ta'lim jarayonida qo'llanilmasdan keldi.

Rus olimlari Ingrid Bem va Yens Shnayder loyihalash faoliyati o'quvchilarni ma'lum bir ta'lim olish davrida (o'quv yili yoki yarim yillik) bilim olish va kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning usuli deb hisoblaydilar[3]



Loyiha faoliyatida turli ta'lim muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlarining hamkorligini nazarda tutuvchi loyihalar asosiy o'rin tutadi. Ta'limga loyihalash metodining kirib kelishi XIX asrga borib taqaladi. "Klaster" nazariyasi esa dastavval iqtisodiyot tarmog'ida yuzaga keldi. "Klaster" nazariyasining ko'p qirraliligi, uning zamirida bir nechta nazariy yondashuvlar shakllanishiga yo'l ochadi.

O'quvchining bilimining o'sishi uni ichki va tashki o'qish faoliyati natijasida yuz beradi. Ichki omillarga o'quvchining o'z ustida ishlashi, zarur bilimlarni egallashga intilishi jarayoni kiritilsa, tashqi omillarga o'quvchining loyiha jarayonida ishtirok etishi va shu orqali egallagan bilimlari nazarda tutiladi. [4]

Loyihalash faoliyatida turli ta'lim muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlarining hamkorligini nazarda tutuvchi loyihalar asosiy o'rin tutadi. Ijtimoiy muhim loyihalarni amalga oshirishda maktab o'quvchilarining qatnashishi ularning mukammal bilim va yuqori malaka egallashi, mustaqil faoliyat olib borish ko'nimkmalariga ega bo'lish imkonini beradi. Ana shu jihatlaridan kelib chiqqan holda bugungi kunda maktab tizimining o'quv jarayonida maktab bitiruvchisining ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy hamkorlikka e'tibor qaratish muammosi kun tartibiga chiqmoqda.

Loyihalash faoliyatida klaster usulini qo'llashni amalga oshirish mexanizmlari o'z ichiga loyiha topshiriqlarini hal etishga qaratilgan huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy va tashkiliy-metodik shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan tadbirlarni qo'llashni qamrab oladi. Klaster usuli yordamida loyihalash faoliyatini tashkil etish avvalo hamkorlik va o'zaro muloqotni yo'lga ko'yishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida ta'limning mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari, biznes va mehnat bozori bilan ijobiy tarzda o'zaro ta'sir etishining ifodasi sanaladi. Bundan kelib chiqqan holda, loyiha faoliyatida klaster usulini qo'llashdagi eng samarali mexanizm sifatida ijtimoiy hamkorlik nazarda tutiladi, chunki aynan shu orqali loyihaning ishtirokchilari o'rtasida amaliy muloqotga erishish mumkin bo'ladi.

Klaster usuli asosida tashkil qilingan loyihalash faoliyatida ijtimoiy hamkorlik nafaqat ta'lim tizimi bilan, balki turli xil toifa va qiziqishga ega jamiyat tabaqalari va ijtimoiy guruhlarining o'zaro muloqotga kirishishiga imkon beradi, turli xil darajadagi muassasalar, talabalar, pedagoglar, talabalarning ota-onalarini o'zaro integratsiyalashuv jarayonini yuzaga keltiradi. Umumta'lim maktablari, ilmiy muassasalar, qo'shimcha ta'lim muassasalari, muzeylar, kutubxonalar, informatsion tarmoqlarni ham bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Loyihalash faoliyatidagi bunday yaqin ijtimoiy hamkorlik natijasida mutaxassislar tayyorlash, loyihani moliyalashtirish uchun manba topish, ta'lim muassasalarini axborot texnologiyalari va metodolik materiallar bilan ta'minlash, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, turli korxonalar va tashkilotlar, ilmiy markazlar bilan hamkorlik jarayonida innovatsion loyihalarni amalga oshirish masalalari samarali yechim topadi. Shu o'rinda ijtimoiy hamkorlik mexanizmi 2 ta muhim vazifani



bajaradi: birinchidan, loyiha ishtirokchilari o'rtasida ijtimoiy kelishuvni ta'minlaydi, ikkinchidan, loyihalash faoliyatining asosiy maqsadiga erishish uchun imkon yaratadi.

Ilk bora aynan pedagogika sohasidagi ijtimoiy hamkorlik g'oyalari D.Dyui, S.T.Shatskiy, A.S.Makarenkolarning ishlarida o'z ifodasini topgan edi. Ushbu mualliflarning ilmiy asarlarida bolaning tabiiy muhitda real hayotda voyaga yetishi uchun ta'lim muassasasining atrof-muhit bilan, maktabning oila, jamoatchilik, nodavlat uyushmalar bilan mustahkam aloqa o'rnatish zaruratiga turli xil qarashlar keltirilgan.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida yuzaga kelgan vaziyat bu masalaga alohida va kuchli e'tibor qaratish joizligini ko'rsatmokda. Shuni aytish kerakki, zamonaviy pedagogik nazariya ham ta'lim sohasida keng ijtimoiy hamkorlikning qanchalik zarurligini uqtiradi, sababi aynan ta'lim tizimi, jamiyatning asosiy sohalari bo'lgan iqtisod, ijtimoiy strukturalar, siyosat, madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan yetakchi ijtimoiy institutdir.

Umumiy hisobda ijtimoiy hamkorlik deyilganda turli ijtimoiy guruhlarining birgalikdagi, jamoaviy umummanfaatli va ijobiy faoliyatini anglash mumkin. [5]

Bunda ijtimoiy hamkorlik davlat, ya'ni uning nomidan bu munosabatlarda qatnashuvchi hukumat va davlat organlari bilan munosabatlarning boshqa sub'ektlari - shaxs, oila, jamoat guruhlari va institutlari, nodavlat tashkilotlari, jamg'armalar va ittifoqlar o'rtasidagi munosabat sifatida qaraladi. Ushbu munosabatlardan ko'zlangan asosiy maqsad muhim siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolarning yechimini birgalikda topish, shahar, hudud hayotiga birgalikda mas'ul bo'lish, fuqarolarga yuqori darajadagi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashdan iboratdir. Ta'lim tizimidagi ijtimoiy xamkorlikni tahlil kilganda bir qancha qarashlar diqqat markazda bo'ladi.

M.S.Chvanovaning hisoblashicha, bu bir tomondan bir qancha jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan ta'lim muassasasining iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning huquqiy shaklidir, ikkinchi tomondan - bu jamoat tashkilotlari, firmalar va kompaniyalarning ta'lim muassasasi bilan norasmiy, ya'ni huquqiy kuchga ega bo'lmagan, shartnoma yoki kelishuv bilan tasdiqlangan hamkorlik shaklidir, uchinchidan, bu ta'limni rivojlantirishning bir shaklidir, to'rtinchidan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini bir maromga bo'lishini ta'minlaydigan mexanizmdir, beshinchidan, ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni hal etishning bir usuli bo'lib, ta'lim muassasasi, ish beruvchi va davlat o'rtasidagi ziddiyatlarni ijobiy hal qilishning shaklidir. [6]

N.Ye.Astafeva fikricha, ta'lim sohasida ijtimoiy hamkorlik faoliyatining samaradorligiga erishish uchun avvalo jamoat shartnomasi ishtirokchilari, ya'ni sub'ektlari birgalikda harakat qilishlari kerak, bu harakatlar natijasida shaxsiy manfaatdorlik jamoaviy manfaatdorlikni keltirib chiqaradi.[7]

Ijtimoiy hamkorlik oddiy hamkorlikdan o'zining samaradorligi va sifati bilan alohida ajraladi, sababi unda har bir ishtirokchining muvaffaqiyati butun jamoaning muvaffaqiyatiga daxldordir.



Loyihani amalga oshirish tajribasi shuni ko'rsatadiki, hamkorlarning ta'lim bozorida raqobatbardoshligini oshirib, uzoq muddat o'z o'rnini va mavqeiga yega bo'lish imkonini yaaratadi. Ijtimoiy hamkorlik har bir tomon uchun o'z oldidagi mas'uliyatni his etgan holda vazifalarni samarali bajarish ko'nikmasini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз, -Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980, 454 pages.
3. Щербо И. Второе пришествие метода проектов//Директор школы. 2003. №3. –С. 25-32.
4. Хуторской А.В. Современная дидактика. СПб: Питер, 2001. 534 с.
5. Ялов Д.А. Кластерный подход как технология управления региональным экономическим развитием. URL: [//subcontract.ru/Docum/DocumShow_DocumID_17.html](http://subcontract.ru/Docum/DocumShow_DocumID_17.html). Загл. с экрана.
6. Чванова М.С. Социальное партнерство в сфере профессионального образования: монография. Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р.Державина, 2007. 92 с
7. Астафьева Н.Е. Социальное партнёрство в воспитании кадет // Российская кадетская переключка. 2008. Выпуск №4. [Электронный ресурс]. URL: <http://www.fskk.ru/journal/?aID=126.html>. Загл. с экрана.
8. Xidoyatova, N. A. (2022). Integrative approach: important element of teaching of foreign language. *Mugallim*, 1(2), 62-65.
9. Xidoyatova, N. A. (2022). The psychological development of properties volitional qualities of pupils. *Mugallim*, 1(2), 68-71.
10. Yuldashevna, S. Z., Khatamjanovna, N. Z., Dexkonovna, T. M., & Abdumuminovna, I. M. M. (2022). Development of critical thinking to the environment in primary school students. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.5 Pedagogical sciences).
11. Tursunboyeva, M. D. (2022). System of information and communication technologies in the education. *Mugallim*, 1(2), 99-102.